

## TA'LIM TIZIMIDA NAMOYON BO'LADIGAN SHAXS XULQ- ATVORINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Lutfullaeva Nigora

Xalqaro Nordik universiteti

Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, p. f.n.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirish uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yoqlama faoliyatni pedagog va talaba faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil qilinadi.

Tadqiqotlarga qaraganda shaxsga tashqi omillar ta'siri u hox ijobiy, hox salbiy bo'lsin, tarbiyalanuvchi tarbiyasida katta ahamiyat ko'rsatadi. Tarbiyalanuvchining shaxsiy tajribasi va ehtiyojlari tashqi ta'sirga munosabatni belgilab beradi va uning xulqiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishning o'ziga kifoya qilmaydi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'ladigan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashni, his qilishni hamda ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qila olganligini bilish zarur.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning *ongiga* (ta'lim jarayoni asosida), hissiyotiga (darsda va undan tashqari ishlarda) va irodasiga ( faoliyatni uyushtirish, xulqini idora qilish jarayonida) sistemali va muntazam ta'sir etib boriladi. Talabani tarbiyalashda bularning birontasi ( ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi.

“Xulq” tushunchasi sof ma'noda psixologik kategoriyalar bo'lib, ular orqali shaxsning uni o'rab turgan jamiyat bilan amalga oshiradigan murakkab o'zaro munosabatlari tushuntiriladi<sup>1</sup>.

Xulq-tirik mavjudga xos harakatlar majmuini, uning tashqi muhit bilan amalga oshiradigan o'zaro ta'sir jarayonlaridagi faollikning psixologik mexanizmidir. Xulq va uning turli tuman qirralari, shakllari inson amalga oshiradigan faoliyatda namoyon bo'ladi. Xulqning maqsadga muvofiqligi shaxsni o'rab turgan odamlar guruhi, jamoada shakllangan normalar xarakteri, kutishlar, qadriyatlar, harakat mezonlariga bog'liq bo'lib, uning nomuvofiqligi birinchi navbatda ish faoliyati sifatida va shaxslararo munosabatlar xarakterida, mehnat jamoasidagi ma'naviy-psixologik muhitda o'z aksini topadi.

Shaxs xulqi motivlari haqida gap ketganda, uning ikki tomoni yoki elementi ajratiladi: harakat dasturi va maqsad. Harakat dasturi maqsadga erishishning

---

<sup>1</sup> Ижтимоий психология: Дарслик. Нопедагогик олийгохлари талабалари учун // Муаллиф: В.М.Каримова.– Т.:, 2010. – 164 б.

vositalariga aniqlik kiritadi. Ijtimoiy xulqning motivlari aniqlangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan, maqsadlar va unga yetishish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina shaxs xulqi jamiyat normalariga mos bo'ladi.

Kundalik hayotda inson amalga oshiradigan xatti-harakatlarini ikki toifaga bo'lish mumkin: aql farosat bilan boshqariladigan va instinktiv tarzda ro'y beradigan. Birinchi turi xatti-harakat odam o'zi bevosita ishlayotgan predmetlar va ularning xususiyatlarini hisobga olib turib, harakat qilishi lozim bo'lganda namoyon bo'lsa, ikkinchi turlari inson uchun shu qadar tabiiy va odatiy bo'ladiki, uning uchun u ataylab o'ylab yotmaydi. Agar biron bir harakat boshida fikrlash va tahlilni talab etib, keyinchalik qaytarilish evaziga avtomatik tarzda amalga oshiriladigan harakatga aylansa, biz uni *odat* deb ataymiz. Odatlarning asosida doimo malaka yotadi. Agar malakalar bizdagi aniq bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra muvaffaqiyatni ta'minlasa, *u ko'nikmalar* deb ataladi. Ijtimoiy vaziyatlarda insonlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan holatlardagi faoliyatda ko'nikmalarning o'rni katta bo'ladi, chunki ijtimoiy faoliyat aniq bilimlarga tayanishi va ongli harakatlarni talab qiladi<sup>2</sup>.

Xulq-atvorni belgilovchi odat va ko'nikmalarni boshqarish va ularga ta'sir qilish yo'llari quyidagi ko'rinishda ifodalanadi.

Odat va ko'nikmalarni boshqarish shaxs tomonidan o'z ongini va maqsadiga qaratilgan xulq-atvorini muntazam ravishda o'z shaxsi, sog'ligi va ishining muvaffaqiyatiga bo'ysundirish demakdir.

Ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishda insondan ayrim odatlar va ko'nikmalardan voz kechishga to'g'ri keladi. Buning qoidalari quyidagilar:

1. Eski zararli odatdan ozod bo'lish uchun odamda yangilikka, foydali odatni shakllantirishga qaratilgan aniq, qat'iy va uzluksizlikka bog'liq bo'lgan qaror kerak.

2. Aniq maqsad bilan yangi odatning mustahkamlanishiga sabab bo'luvchi vaziyatni, holatlarni ataylab yaratish lozim.

3. Yangi ko'nikma yoki odatning mustahkamlanishi doimiy qaytarilish va mashqlarni talab qilishini unutmaslik kerak.

4. Har bir harakatda ma'naviy mantiq va oqilona asoslar borligini to'la anglash kerak. Ya'ni, har kuni har bir mayda-chuyda ishlarni amalga oshirishda ham ichki hozirlik va aqliy zo'riqishdan qo'rqmaslik yangi odatlarning mustahkamlanishi va xulqni boshqarishga asosdir.

*Ijtimoiy xulqni boshqarish* - odamlar irodasiga psixoemotsional ta'sir bilan bog'liq. Kishilarni bu ishga o'rgatish ularni o'z oldilariga aniq, istiqbolli maqsadlar qo'ya olish va bunga butun irodasini safarbar qilish bilan bevosita aloqador. *Iroda* - insondagi shunday sifatki, u qiyin vaziyatlarda butun ichki kuchi va imkoniyatlarini ma'lum yo'nalishga yo'naltirish va o'z intilishlarining oqibatlarini natijasini tasavvur qilishini nazarda tutadi. Shuning uchun bunda iroda tarbiyasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Insondagi yaxshi odat va ko'nikmalar samaradorligini o'lchash mezonlari mavjud bo'lib ular ushbu ko'rinishda ifodalanadi.

---

<sup>2</sup> Ижтимоий психология: Дарслик. Нопедагогик олийгоҳлари талабалари учун // Муаллиф: В.М.Каримова.– Т.: 2010. – 164 б.

- mehnatga munosabat;
- jamo'a a'zolariga bo'lgan munosabat;
- rahbarlikka bo'lgan munosabat;
- jismoniy sog'lik;
- kayfiyatning yaxshiligi.

Shaxs xarakatlari ijtimoiy norma – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlarga nisbatan talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, "Assalomu alaykum" deb kelishi; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi – norma va hokazo. Bu normalarni ayrim – alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi.

Ijtimoiy sanksiyalar – normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, "ko'zini moshday qilib ochib qo'yish" ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi.

Rol – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish – u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib-intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan "farzandlik" roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir "tartibli, ba'mani, fozil, ahloqli va odobli" deyilsa, kimdir – be'mani,

bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda – betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei – statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda – shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Misol uchun, sirtidan tahsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga tekshiruv kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi – bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan – kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa – chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Jamiyat normalariga muvofiq yashash va rioya etib borishda ijtimoiylashuv jarayoni katta rol o'ynaydi. Bu tushuncha sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o'zlashtirishga moyilligi, o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. "Ijtimoiylashuv" tushunchasi ma'no jihatdan yaqin bo'lgan ikki xil tushuncha bilan bog'liq: "tarbiya" va "moslashuv". Ijtimoiylashuv tarbiya jarayonidan ancha kengroqdir, chunki uning ma'no-mazmunida har doim ham qolipga solib bo'lmaydigan, har doim ham shaxs tomonidan anglanmaydigan holatlar ham mavjud bo'ladi. Moslashuv esa ijtimoiylashuvning bir tarkibiy qismi, uning mexanizmi sifatida qaralishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik moslashuv, ya'ni, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga ko'nikishi va moslashishi orqali orttirgan tajribasi umumiy ijtimoiylashuvning bir ko'rinishidir.

Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o'zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o'rganadi, jamoatchilik sharoitida o'zini tutish ko'nikmalarini hosil qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi shu ma'noda uning ijtimoiy borliqni bilishiga, anglashiga asoslanadi.

Ijtimoiylashuv manbalariga quyidagilar kiradi:

1) bolalik davrida orttirilgan tajriba – bu jarayon psixik funksiyalarning shakllanishi va dastlabki ijtimoiy xulq normalarining namoyon bo'lishi bilan parallel ravishda kechadi;

2) ijtimoiy institutlar – ta'lim va tarbiya tizimi; oiladan boshlab, to oliy o'quv yurtlari va undan yuqori pog'onalardagi ta'lim olishga imkon beruvchi maskanlar,

mehnat jamoalari shular jumlasidandir;

3) muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi odamlarning ta'siri. Bu o'rinda ham rasmiy, ham norasmiy sharoitlarda odamlarning bir-birlari bilan muloqoti, muomala maromlari nazarda tutiladi.

Inson hayoti mobaynida bajaridigan har bir rolida uni o'rab trugan ijtimoiy borliqning normalari, qoidalari, xulq-atvor mezonlari o'z aksini topgan bo'ladi. Har bir odam hayoti mobaynida xaddan ziyod ko'p turli rollarni bajaradiki, ularning barchasi uning ijtimoiylashuv tajribasida munosib iz qoldiradi. Shuning uchun ushbu jarayonda har bir odam o'zining jamiyatda o'rnini topishga intiladi va samarasiga ko'ra u yoki bu mavqega erishadi. Aslini olganda ijtimoiylashuvning har bir bosqichida shaxs o'zining "Men"ini tobora anglab, unga kerakli tuzatishlar kiritib boradi. Agar shaxsiy tajriba ijobiy bo'lib, odam ko'rgan-kechirganlaridan yaxshi va to'g'ri xulosalar chiqarib, to'g'ri turmush tarzini shakllantira olsa, uning odamlar orasida obro'si yuqori, aks holda shaxs degradatsiyasi, xulqdagi deprivatsiyalar haqida xulosa chiqariladi.

Shaxs sifatida shakllanishda talabning ijtimoiy bilimdonlik darajasi o'rganish muvaffaqiyatiga bog'liq. Bunda ijtimoiy ong, ijtimoiy tafakkur va ijtimoiy xulq ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy ong – o'z qarashlari, maqsadlari, dunyoqarashiga ega bo'lgan inson ongiga bevosita jamiyat taraqqiyoti qonunlari, shaxslararo munosabatlarga aloqador ob'ektlarning aks etishidir. U murakkab psixologik tuzilma bo'lib, ijtimoiy vaziyatlar va sharoitlarning shaxs ongi, dunyoqarashi va motivlariga ta'siridan hosil bo'ladi.

Ijtimoiy tafakkur – ijtimoiy munosabatlariga kirishgan sub'ektlarning ijtimoiy munosabatlarga oid tasavvurlari, bilimlari, g'oyalari hamda qarashlarini ongdagi aksi bo'lib, u amalga oshirilayotgan faoliyatning mohiyatini tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va xulosalar chiqarish imkonini beradi. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, ijtimoiy sotsializatsiya jarayonida, xususan, maqsadga muvofiq ijtimoiy xulqni tarbiyalashda ma'lum usullardan foydalanadi.

Ijtimoiy ongi shakllantirishga qaratilgan tarbiya usullari mavjud.

Bunda quyidagi usullarni kiritish mumkin: ma'ruza suhbat nasihat munozara va taqlid qilish. Suhbat usulining qo'llanish jarayonida qo'proq tarbiyalanuvchi so'zlashuvi, tarbiyalovchi yo'naltiruvchi va xulosalarni tartibga soluvchi vazifasini bajaradi. Ma'ruza usuli buning aksi, tarbiyachining faol ishtirokida asoslash, isbotlash, mantiqiy xulosalardan tashkil topadi. Munozara usulida tarbiyalanuvchilar faol ishtirok etadilar va har ikki tomon o'z qarashlarini isbotlashga harakat qiladilar. Taqlid qilish usuli talabning o'z dunyoqarashiga asos kiritish natijasida vujudga keladi. Taqlid qilish usuli ko'r-ko'rona emas, balki idrok va ijtimoiy tafakkur jarayonlarining ishtirokida boradi.

Ijtimoiy faoliyatga o'rgatuvchi usullarga esa mashq qilish, odatlantirish, malaka hosil etish, talab qilish, pedagogik talab, albatta, jamiyatning axloqiy normalari asosida qo'llaniladi va axloq normalariga xos holda xatti-harakatga o'rgatiladi. Masalan, tartibga odatlantirish, muomalaga va jamoat joylarida o'zini tutishga o'rgatish kabilarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy sanksiyalarni ifodalovchi tarbiya usullari xam bor, unga:

rag'batlantirish, ijtimoiy sanksiya (cheklov, jazolash), musobaqalar o'tkazish usullarini kiritish mumkin. Ijtimoiy sanksiya usuli, kuchli psixologik ta'sirga ega bo'lib, ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bu metodda, ayniqsa, individual yondashish va har bir xatti-harakatni tahlili qilgan holda hal qilish kerak bo'ladi. Rag'batlantirish usulida, ayniqsa, temperament xususiyatlarini hisobga olish tavsiya qilinadi Bunda talabani erkalatib taltaytirib yuborish, manmanlikni keltirib chiqarishdan ehtiyot bo'lish zarur. Rag'batlantirish usulida moddiy va ma'naviy orasidagi mutanosiblikka e'tibor berish lozim. Musobaqalar o'tkazish usulida asosiy e'tiborni hakamlar tomonidan to'g'ri, halol va odillikka qaratishlari lozim.

Nazorat qilish usullari sifatida esa: pedagogik nazorat o'rnatish, topshiriqni tekshirish, vazifalarni tekshirish, vazifalarni kuzatish, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'ziga baho berish, taqqoslash kabi usullar kiradi.